



AUTIZM SPEKTRLI BOLALARDA NOVERBAL MULOQOTNI
RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN VIZUAL-DIDAKTIK METODIKALAR

Mamatova Aziza Bo'riboevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Logopediya kafedrasi pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Muhammadsharipova Nafisa Saidakbarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Logopediya yo'nalishi 4-bosqich
talabasi

Annotatsiya: Maqolada autizm spektridagi kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan noverbal muloqotni rivojlantirishga qaratilgan vizual – didaktik metodikalarning o'ziga xosligi, hamda autizmda noverbal muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf etishda, vizual ko'rsatmalarining o'рни haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: autizm sindromi, nutq va muloqot, noverbal, PECS kartochkalari, exolaliya, apraksiya, mutizm, prosodika, korreksiya, vizualizatsiya.

Аннотация. В статье представлены сведения об особенностях визуально-дидактических методик, направленных на развитие невербальной коммуникации у детей с расстройствами аутистического спектра, а также о роли визуальных средств в коррекции нарушений невербального общения при аутизме.

Ключевые слова: аутизм, речь и коммуникация, невербальная коммуникация, карточки PECS, эхोलалия, апраксия, мутизм, просодика, коррекция, визуализация.

Abstract. The article provides information on the specific features of visual-didactic methods aimed at developing nonverbal communication in children with autism spectrum disorders, as well as the role of visual aids in correcting impairments in nonverbal communication associated with autism.

Keywords: autism spectrum disorder, speech and communication, nonverbal communication, PECS cards, echolalia, apraxia, mutism, prosody, correction, visualization.

Autizm spektr buzilishlari bugungi kunda bolalar orasida keng tarqalib borayotgan neyropsixologik rivojlanish buzilishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu toifadagi bolalarda ijtimoiy o'zaro ta'sir, muloqot va xulq-atvor sohalarida o'ziga xos qiyinchiliklar kuzatiladi. Ayniqsa, noverbal muloqotning yetarli darajada shakllanmaganligi ularning atrof-muhit bilan samarali aloqa o'rnatishiga to'sqinlik qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha taxminan har 100 nafar boladan 1 nafari autizm spektr buzilishiga ega. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda (masalan, AQSh) bu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lib, Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi ma'lumotiga ko'ra, har 36 nafar boladan 1 nafari ASB bilan tashxislangan. [1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizm spektrli bolalarning 60–90% ida muloqot va nutq rivojlanishida sezilarli buzilishlar kuzatiladi. Shu jumladan, ularning katta qismida noverbal muloqot vositalari — ko'z bilan aloqa, imo-ishoralar, mimika va tana



harakatlaridan foydalanish darajasi past bo'ladi yoki atipik shakllangan bo'ladi. Autizmning sabablari miyadagi sinaptik aloqalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi genlar bilan chambarchas bog'liq, ammo kasallikning genetikasi murakkab va hozirgi vaqtda autizm spektrining buzilishining paydo bo'lishiga nima ko'proq ta'sir qilishi aniq emas: Kamdan kam hollarda kasallikning tug'ma nuqsonlarni keltirib chiqaradigan moddalarga ta'sir qilish bilan bog'liq aloqasi topiladi. Boshqa taklif qilingan sabablar munozarali - xususan, autizmi bolalik davridagi emlashlar bilan bog'laydigan gipoteza uchun ilmiy dalil yo'q. Amerika Qo'shma Shtatlari ma'lumotlariga ko'ra, 2011-2012 yillarda maktab o'quvchilarining 2 foizida autizm va autizm spektrining buzilishi rasman tashxis qo'yilgan, bu 2007-yildagi 1,2 foizga nisbatan ancha ko'pdir. 1980-yillardan beri autizm tashxisi qo'yilgan odamlarning soni keskin o'sdi.

Noverbal muloqot — bu mimika, imo-ishora, ko'z bilan aloqa, tana harakatlari orqali axborot almashish jarayoni bo'lib, autizm spektrli bolalar uchun muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan noverbal vositalar orqali ushbu bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish nisbatan samarali kechadi. [3]. Zamonaviy pedagogik va korreksion yondashuvlarda vizual vositalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Vizual materiallar (rasmlar, piktogrammalar, kartochkalar, jadval va sxemalar) autizm spektrli bolalar tomonidan axborotni qabul qilishni osonlashtiradi, ularning diqqatini jalb qiladi hamda muloqot jarayonini tizimlashtirishga yordam beradi. Shu sababli vizual-didaktik metodikalar noverbal muloqotni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Autizmli bolalar ko'pincha vizual ma'lumotlarni yaxshi qabul qiladi. Shuning uchun ularni o'qitishda vizual qo'llanmalar (rasmlar, belgilar, jadvallar) keng qo'llaniladi. Strukturalashtirilgan muhit yaratish — bu bolalarga aniq va tushunarli ko'rsatmalar berish, kun tartibini vizual jadval orqali ko'rsatish va har bir faoliyatni bosqichma-bosqich tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Bu bolalarga xavfsizlik hissini beradi va ularni yangi narsalarni o'rganishga undaydi. Autizmli bolalar ko'pincha ijtimoiy aloqa va kommunikatsiya qobiliyatlarida qiyinchiliklar uchraydi. Shuning uchun ularni o'qitishda ijtimoiy mahoratni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar qo'llaniladi.[3].

Masalan, "Social Stories" (Ijtimoiy hikoyalar) usuli orqali bolalarga turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligi tushuntiriladi. Bundan tashqari, o'yinlar va rolli o'yinlar orqali bolalarning ijtimoiy integratsiya qobiliyati oshiriladi. Autizmli bolalar ko'pincha sensorli qabul qilishda (masalan, tovush, yorug'lik, hid) sezgirlik yoki sezgirlikning pastligi bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Sensorli integratsiya texnologiyalari orqali bolalarning sensorli qobiliyatlari rivojlantiriladi. Masalan, sensorli xonada turli xil sensorli tajribalar (masalan, qum bilan ishlash, suv bilan o'ynash) orqali bolalarning hissiyotlari va motorik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Quyida autizmda vizual vositalar asosida noverbal muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikalar berib o'tilgan: Shunga monan autizmdagi kamchiliklarni bartaraf etishda hamda vizualizatsiya vositalaridan foydalangan holda noverbal muloqotini shakllantirishga oid bir qancha metodikalarni siz bilan birga tahlil qilib chiqamiz.



№ O'yin turlari Mazmuni va asosiy funksiyasi

1. Sensorli o'yinlar turli ranglar, tovushlar, sensorli materiallar, turli ta'm va hidlar orqali bolalarning sezgi idrokini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, xushbo'y mevalar bilan o'ynash; sovun eritmasi va pufakchalar yasash bilan nafas mashqlarini olib borish.

2. Ijtimoiy impuls o'yinlari bolalarning koordinatsiyasini va motor qobiliyatlarini oshiradi, tafakkur ko'nikmalarini rivojlantiradi: avtomobil yuvish, oshxonada o'ynash, hovlida qum o'yinlari.

3. Emotsional va hissiy o'yinlar o'yin yordamida bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etishni o'rganadilar, bu muloqot uchun muhimdir. Oila a'zolari bilan rol o'ynash, ertak aytish yoki hikoyalar asosida muloqot qilish ijtimoiy ko'nikmalarga yordam beradi.

4. Relaks o'yinlar suv, musiqa va tovush asosidagi o'yinlar bolalarga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning diqqatini jamlashga yordam beradi.

San'at turlari vositasida korreksiyalash-davolash (art-terapiya) — bu shaxsdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularni kompensatsiya qilishga qaratilgan badiiy faoliyat turlari (rasm, raqs, musiqa, she'riyat, teatr, badiiy o'qish, ritorika)dan foydalanishga asoslangan metodlar majmuasidir. Ushbu vositalar aynan nafaqat autistik bolalar uchun balki barcha bolalar uchun qo'llasa bo'ladigan keng tarmoqli majmuadir. Ushbu terapiya turlari bolalardagi xulq – atvor, psixik holatlarini to'lliq namoyon eta olishlariga yordam beradi.[5]

TRIZ texnologiyasi. TRIZ texnikasi va usullaridan mohirlik bilan foydalanish (ixtirochi muammolarni hal qilish nazariyasi) autistik bolalarda ixtirolarini, ijodiy xayolotni va dialektik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. TRIZning asosiy ish mexanizmi ixtirochi muammolarni hal qilish algoritmidir. Bolalar bilan ishlashning asosiy vositasi pedagogik izlanishdir. O'qituvchi tayyor bilimlarni bermasligi, haqiqatni unga ochib bermasligi, uni qanday topishni o'rgatishi kerak. Agar bola savol bersa, darhol tayyor javob bermang. Aksincha, siz undan bu haqda nima deb o'ylashini so'rashingiz kerak. Uni mulohaza qilishga taklif qiling. Va etakchi savollar bilan bolani o'zi javob topishga undang. Agar u savol bermasa, o'qituvchi qarama-qarshilikni ko'rsatishi kerak. Shunday qilib, u bolani javob topish kerak bo'lgan vaziyatga soladi, ya'ni. ob'ekt yoki hodisani bilish tarixiy yo'lini ma'lum darajada takrorlaydi. TRIZ metodologiyasining asosiy bosqichlari:

1. Aslini qidiring (Bolalar oldiga hal qilinishi kerak bo'lgan muammo yoki savol qo'yiladi.) Va har kim har xil echim izlaydi, haqiqat nima.

2. "Ikki kishining siri". Ushbu bosqichda biz ziddiyatni aniqlaymiz: yaxshi - yomon, masalan, quyosh yaxshi yoki yomon. Yaxshi isitiladi, yomon yoqilishi mumkin.

3. Ushbu qarama-qarshiliklarning echimi (o'yinlar va ertaklar yordamida). Masalan, soyabon yomg'ir ostida yashirish uchun kattagina, ammo sumkada olib yurish uchun kichkinagina kerak. Ushbu qarama-qarshilikning echimi buklanadigan soyabon.

PECS (Picture Exchange Communication System) tizimidan foydalanish. PECS tizimi rasmi kartochkalar orqali muloqot qilishni o'rgatadi. Bola kerakli predmet tasvirlangan kartochkani logopedga yoki ota-onaga uzatish orqali o'z xohishini bildiradi. Ushbu tizim noverbal muloqotni shakllantirishda samarali metodlardan biri hisoblanadi.



Mozaika va pazllarni yig'ish. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun yirik qismlardan iborat pazllar va mozaikalar tanlanadi. Pazllar bolaning tasavvurini ham rivojlantiradi, shuningdek pazlli o'yinlarni autizm spektrli bolalarning aksariyati yoqtirib bajaradilar.

Rasm chizish va bo'yash. Punktir chiziqlardan iborat rasmlarning va hokazo. Bu bolaning nafaqat nonutqiy qobiliyatlarini, balki tasavvur qilish qobiliyati va ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Noverbal muloqotni rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'yinlar faqat kattalarning nazorati ostida olib borilishi hamda bunday mashqlarni muntazam ravishda bajarish zarur. Verbal va noverbal muloqotni rivojlantirishga qaratilgan logopedik-korreksion ish usullari bolaning harakat faolligini oshirish, tanani boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish, nutq jarayonida mushaklar muvofiqligini ta'minlashga, shuningdek kognitiv jarayonlarining ijobiy holatda shakllanishiga xizmat qiladi. Harakatli mashqlar, barmoq o'yinlari, ritmik harakatlar va senso motor topshiriqlar bolada nutqga bo'lgan ishonchni kuchaytirib, nutqdagi kamchiliklarni belgilarining kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Vizual vositalar autizm spektrli bolalarda noverbal muloqotni rivojlantirishda samarali pedagogik va logopedik usullardan biridir. Rasmi kartochkalar, piktogrammalar, vizual jadval va imo-ishoralor orqali bola atrof-dagilar bilan muloqot qilishni o'rganadi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Hozirgi kunda deyarli har kuni yangi bir metodikalar ishlab chiqilmoqda.

XULOSA.

Autizm spektrli bolalarda noverbal muloqotni rivojlantirish ularning ijtimoiylashuvi va atrof-muhit bilan samarali o'zaro aloqaga kirishishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu toifadagi bolalarda verbal nutqdan ko'ra vizual qabul qilish tizimi nisbatan yaxshi rivojlangan bo'lib, aynan shu xususiyatdan samarali foydalanish korreksion-pedagogik ishlarning muvaffaqiyatini oshiradi. Vizual-didaktik metodikalar, xususan PECS tizimi, piktogrammalar, vizual jadval va ijtimoiy hikoyalar kabi yondashuvlar bolalarda muloqotga kirishish ehtiyojini shakllantiradi, ularning kommunikativ faolligini oshiradi hamda o'z fikr va ehtiyojlarini noverbal vositalar orqali ifodalash imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, mazkur metodikalar xulq-atvorni tartibga solish, stress va noaniqlikni kamaytirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, vizual vositalarga asoslangan didaktik metodikalarni tizimli, bosqichma-bosqich va individual yondashuv asosida qo'llash autizm spektrli bolalarda noverbal muloqotni rivojlantirishning samarali yo'li hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodikalarni yanada takomillashtirish va ularning qo'llanilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pechnikova L. S. "Erta bolalik autizmi bo'lgan bolalarga ona munosabatining o'ziga xos xususiyatlari" - 2009. "Moskova" 715-b



2. Baenskaya E. R. "Autizmlı bolalarning erta affektiv rivojlanishining xususiyatlari" - 2003. "Psychology" 32-37-b.
3. Vedenina M.Yu. "Autizmlı bolalarda ijtimoiy va kundalik ko'nikmalarni shakllantirish uchun xulq-atvor terapiyasi usullarini moslashtirish"-2000. 114- 130 b.
4. Евсева О.Э., С.И. Евсеев Технологии физкультурно-спортивной деятельности адаптивной физической культуре: учебник /// М.: Спорт.2016, 384-б
5. Колпакова А.А. Ранний детский аутизм // Аллея науки. 2018.Т.2 (18).С. 713-б.
6. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.:«Владос», 2013.83-б.
7. Egamberdiyeva N. A. "Raqamli ta'lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish " . "Raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta'lim tarbiya jarayoniga tatbiq qilish yo'llari " mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi I TOM. 2023-yil. 278-282-betlar.
8. CDC and HRSA issue report on changes in prevalence of parent-reported Autism Spectrum Disorder in school-aged children“ Media Advisory. Centers for Disease Control and Prevention. 2013-yil 7-oktyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2013-yil 9-oktyabr.
9. Axrorova, S. (2021). Ранний детский аутизм и работа по развитию речи. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
10. Z.A.Jumaniyazova.2025. Oilaviy-qo'shnichilik munosabatlarda tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish. Monografiya. UO'K 37.035.6(063) KBK 74.005.22 Y 66.